

AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA KURSANTLARDA FUQAROLIK KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Xaydarov Kozimbek Abdixakimovich

*O‘zbekiston Respublikasi Harbiy Xavfsizlik va
Mudofaa Universiteti, Harbiy pedagogika va
psixologiya kafedrası boshlig‘i, p.f.f.d. (PhD), professor*

Annotatsiya. Mazkur maqolada kursantlarda fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda aksiologik yondashuvning ahamiyati, mazmuni, aksiologik yondashuv asosida takomillashtirish strategiyalari, kursantlarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik – psixologik imkoniyatlarini aniqlashtirish, aksiologik yondashuv asosida fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish yoritiladi. Maqolada ta’lim jarayonida qadriyatlar tizimiga asoslangan yondashuv orqali mazkur kompetensiyani samarali shakllantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: aksiologik yondashuv, fuqarolik kompetensiyasi, kursantlar, pedagogik strategiyalar, qadriyatlar, harbiy ta’lim.

Аннотация. В данной статье освещаются значение, содержание аксиологического подхода в формировании и развитии гражданской компетенции у курсантов, Стратегии совершенствования на основе аксиологического подхода, уточнение педагогико – психологических возможностей развития социально активной гражданской компетенции у курсантов, развитие гражданской компетенции на основе аксиологического подхода. В статье рассматриваются возможности эффективного формирования данной компетенции посредством системно-ориентированного подхода в образовательном процессе.

Ключевые слова: аксиологический подход, гражданская компетентность, кадеты, педагогические стратегии, ценности, военное образование.

Annotation. In this article, the importance of the axiological approach in the formation and development of civic competence in cadets, the content, improvement strategies based on the axiological approach, clarification of the pedagogical – psychological possibilities of the development of socially active civic competencies in cadets, the development of civic competence based on the axiological approach will be covered. The article examines the possibilities of effective formation of this competence through an approach based on the value system in the educational process.

Keywords: axiological approach, civil competence, cadets, pedagogical strategies, values, military education.

Bugungi globallashuv va ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar sharoitida har bir fuqaroning, xususan, harbiy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan kursantlarning fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, **aksiologik (qadriyatga asoslangan) yondashuv** fuqarolik ongini shakllantirishda, axloqiy-estetik, ijtimoiy-madaniy va vatanparvarlik qadriyatlarini chuqur singdirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy harbiy ta'lim jarayoni faqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni emas, balki harbiy xizmatchilarning fuqarolik pozitsiyasini, ijtimoiy mas'uliyatini, huquqiy ongini va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub zahirida ijtimoiy faol, barkomol yosh-avlodni tarbiyalash eng muhim vazifa sifatida ilgari surilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil 23-sentyabrdagi 75-sessiyasida so'zlagan nutqida yoshlar masalasiga to'htalar ekan: “mamlakatimiz aholisining yarmidan ko'pini yoshlar tashkil etadi. Respublikamizda har bir yigit – qizning jamiyatda munosib o'rin egallashi va o'z salohiyatini namoyon etishi bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda”. O'zbekistonda Yoshlar parlamentlari, Yoshlar ishlari agentligi faoliyat ko'rsatmoqda. Avgust oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida yoshlar huquqlariga bag'ishlangan Samarqand xalqaro forumi muvaffaqiyatli o'tkazildi. Fursatdan foydalanib, yana bir bor Yoshlar huquqlari to'g'risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Konvensiyasini qabul qilish bo'yicha O'zbekiston tashabbusini qo'llab-quvvatlashga chaqiraman” - degan fikrlari dunyo hamjamiyati tomonidan ham keng e'tirof etilmoqda[1].

Ayniqsa, kursantlar uchun bu holat ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida vatanparvarlik, qonun ustuvorligi va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga asoslangan yondashuvni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, aksiologik yondashuv – ya'ni qadriyatlar tizimiga tayanilgan ta'limiy yondashuv – fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishda asosiy pedagogik strategiya sifatida namoyon bo'ladi.

Aksiologik yondashuv mohiyati – bu o'quv jarayonida **qadriyatlar tizimi** asosida shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan yondashuvdir.

Bu yondashuv quyidagilarga tayanadi:

1. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar integratsiyasi;
2. Shaxsiy ma'naviy-axloqiy o'sishni qo'llab-quvvatlash;
3. O'quvchilarda (kursantlarda) fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash.

Kursantlarning fuqarolik kompetensiyasi quyidagi tarkibiy qismlar asosida shakllanadi:

1. Huquqiy bilimlar – konstitutsiyaviy tuzum, fuqaro huquqlari va majburiyatlari;

2. Vatanparvarlik his-tuygʻulari – milliy gʻurur, tarixiy xotira, himoya burchini anglash;

3. Ijtimoiy faollik – jamiyatda oʻz oʻrnini anglash va faol ishtirok etishga tayyorgarlik;

4. Masʼuliyat va tanqidiy fikrlash – harakatlarning oqibatini anglash, mustaqil fikr bildirish.

N.N.Djamilova “tashabbuskorlik oʻquv va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun yangi gʻoya va takliflarni ilgari surish hamda amaliy faoliyatda namoyon etishga qodirlik” deb ifodalagan. Talabalar ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlanishida tashabbuskorlik, masʼuliyatlilik, qatʼiyatlilik kabi sifatlar rivojlanishi muhim omil hisoblanadi[3].

Aksiologik yondashuvning markaziy elementi sifatida “qadriyat” tushunchasi hozirgi vaqtda jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni birlashtirgan va uni oʻrganish uchun turli ilmiy fanlar usullaridan foydalanishni talab qiladigan fanlararo hodisaga aylandi. “Falsafiy lugʻat”da qadriyat atrofida dunyo obʼektlarining oʻziga xos ijtimoiy taʼrifi sifatida belgilanadi, bu ularning inson va jamiyat uchun ijobiy yoki salbiy ahamiyatini ochib beradi. Qadriyat muqobil echimlar orasida tanlov mezonidir va insonning ichki ehtiyojlarini ham aks ettiradi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish ilmiy hodisa sifatida “qadriyat” quyidagi xususiyatlarga ega degan xulosaga kelishimizga imkon beradi:

1. U faoliyat bilan bogʻliq va subʼektivdir;
2. Vaqt oʻtishi bilan oʻzgaruvchan va ijtimoiy-tarixiy xususiyatga ega;
3. Shaxsning xususiyatlariga taʼsir qiladi; insonning xulq-atvorini boshqaradi;
4. Oʻta situatsion xususiyatga ega;
5. Va turli subʼektlar uchun har xil ahamiyatga ega boʻlishi mumkin.

Aksiologik yondashuv asosida takomillashtirish strategiyalari quyidagilardan iborat boʻladi:

1. Integratsiyalashgan taʼlim jarayoni: Darslar mazmunini qadriyatlarga asoslash (vatanparvarlik, insonparvarlik, adolat); Tarix, huquqshunoslik, axloqshunoslik fanlarini oʻzaro bogʻlab oʻqitish.

2. Rol oʻyinlari va situatsion mashgʻulotlar: Fuqarolik nizolarini hal qilishga oid rolli oʻyinlar; Huquqiy va axloqiy qarorlar qabul qilish boʻyicha treninglar.

3. Ijtimoiy loyihalar va xizmat oʻquvi: Jamiyatga foydali loyihalarda ishtirok etish orqali ijtimoiy faollikni oshirish; Xayriya aksiyalari, ekologik tadbirlarda qatnashish.

4. Mentorlik va maʼnaviy-axloqiy tarbiya: Har bir kursantga axloqiy koʻmak beruvchi ustozlar tayinlash; Qadriyatga asoslangan suhbatlar, davra suhbatlari va maʼnaviyat darslari tashkil etish.

5. Refleksiya va baholash tizimini joriy etish: Kursantning fuqarolik kompetensiyasi rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish; O‘zini-o‘zi baholash, guruhiy muhokamalar orqali o‘zgarishni ko‘rsatish.

Kursantlarda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik – psixologik imkoniyatlarini aniqlashtirish, bizningcha quyidagi fikr mulohazalarni ta’kidlab o‘tish imkonini berdi:

kursantlarni tarbiyalashda fuqarolik jamiyatining asosiy vazifasi – ijtimoiy faol fuqaroni kamol toptirish;

kursantlarga demokratik davlat qurish g‘oyasini singdirib borish orqali jamiyat hayotning barcha sohalarida ijtimoiy faol ishtirokini ta’minlash;

kursantlarda millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik, xalq farovonligi, komil inson g‘oyalarini singdirgan holda fuqarolik jamiyatini qurishda faol ishtirokini ta’minlash;

kursantlarni mustaqil hayotga tayyorlash va ularda ijtimoiy-siyosiy, huquqiy savodxonlikni rivojlantirish;

kursantlarni oliy ta’lim muassasalaridagi, “Yoshlar ittifoqi uyushmalari faoliyatida faol ishtirok etish, o‘zini-o‘zi boshqarish organlari faoliyatiga keng jalb etish” orqali ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish mumkin.

Fuqarolik kompetensiyasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. Huquqiy kompetensiya – huquqiy bilimlar va ularni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyati;

2. Ijtimoiy faoliyat – jamoatchilik ishlari va fuqarolik burchiga sodiqlik;

3. Axloqiy-psixologik barqarorlik – ichki qadriy yo‘nalishlar va ongli tanlov qilish qobiliyati;

4. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlarga ta’lim-tizimida olib borilayotgan islohotlar o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. “Islohot – bu yangilanish, o‘zgarish degani. Islohotlar ijobiy natija berishi uchun, avvalo, rahbarlarimiz va odamlarimiz o‘zgarishi kerak. Inson o‘zgarsa, jamiyat o‘zgaradi”[2].

Shuning uchun ham, har qanday islohotlar negizida kursantlarimiz faolligi, tashabbuskorligi va ularning ilmi-ijodiy g‘oyalarini qo‘llab quvvatlash ishlarini olib borilishi yurtimizning kelajagi farovonligidan dalolat beradi. Ijtimoiy fol fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish kursantlarda adolat, huquqiy tenglik, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish yo‘lida eng muhim tashabbuskor omil hisoblanadi.

Aksiologik yondashuv asosida fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik strategiyalar muhim hisoblanadi:

1. Qadriyatga yo‘naltirilgan ta’lim kursantlarda vatanparvarlik, fuqarolik burchini anglash va ijtimoiy mas’uliyatni tarbiyalovchi darslar tashkil etiladi.

2. Muammoli o‘qitish usullari fuqarolik va huquqiy masalalarga oid real hayotiy vaziyatlar muhokamasi orqali mustaqil fikrlash rivojlantiriladi.

3. Rol va ssenariy o‘yinlari kursantlar turli ijtimoiy rollarda harakat qilish orqali fuqarolik vazifalarini anglab yetadilar.

4. Refleksiya asosida o‘qitish kursantlarga o‘z harakatlarini baholash va ularning qadriy mezonlarga mosligini tahlil qilish imkoniyati beriladi.

5. Vatanparvarlik tadbirlari va loyihalar ijtimoiy-ma’naviy loyihalarda faol ishtirok etish orqali amaliy fuqarolik pozitsiyasi shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, aksiologik yondashuv asosida kursantlarda fuqarolik kompetensiyasini takomillashtirishning asosiy maqsadi – kursantlar ongida milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, davlatga sadoqat va fuqarolik mas’uliyatini mustahkamlashdir. Aksiologik yondashuv asosida kursantlarda fuqarolik kompetensiyasini takomillashtirish – bu shunchaki harbiy ta’lim berish emas, balki kursantlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jarayonidir. Bu yondashuv orqali kursantlar Vatan va millat oldidagi mas’uliyatini anglaydi, jamiyatda o‘z o‘rnini topadi va milliy taraqqiyotga hissa qo‘shadigan yetuk shaxs bo‘lib yetishadi. Vatanparvarlik tarbiyasini ta’lim tizimining ajralmas qismi sifatida rivojlantirish nafaqat kursantlar uchun, balki butun millat kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun ham aksiologik yondashuv asosida kursantlarda fuqarolik kompetensiyasini takomillashtirish masalasini yuksak Vatanparvarlikning asosiy omili sifatida ko‘rish va ularga tayangan holda tarbiyaviy ishlarni olib borish hozirgi kunning eng muhim strategik vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalq so‘zi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-sentyabrdagi BMT 75-sessiyasidagi nufuzli. 2017-yil 24-sentyabr soni.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.–Toshkent: O‘zbekiston, 2018.–252-b.

3. Djamilova N.N. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarida tashabbuskorlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari.: Avtoref. dis.ped.DSc. – T., 2019-yil. – 14-b.